XALQ DEPUTATLARI KATTAQO’RG’ON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 7 - oktabr VI-64-154-7-106-K/22 Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Kattaqo‘rg‘on shahridagi ayrim nomsiz ko‘cha, xiyobon, maydon va qabristonlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

Shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2022-yil 17-martdagi 2/16-sonli yig‘ilish bayoni, viloyat hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2022-yil 18-martdagi 13-13/94-sonli yig‘ilish bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 31-martdagi 01-14-413-sonli ekspertiza xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga asosan xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmish to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari J.Sherovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarining nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2022-yil 17-martdagi 2/16-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan shahardagi Takror va qonun talablariga mos kelmagan ko‘chalarni nomlash bo‘yicha takliflar 1-ilovaga, Nomsiz xiyobon va maydonlarni nomlash

bo‘yicha takliflar 2-ilovaga hamda Nomsiz qabristonlarni nomlash bo‘yicha takliflar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi (J.Sherov):

- o‘n kun muddatda mazkur qaror bilan tasdiqlangan shahardagi ko‘cha, xiyobon, maydon hamda qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilish choralarini ko‘rsin;

- bir oy muddat ichida nomsiz ko‘chalarga nom berilishi munosabati bilan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan barcha (zamonaviy va milliy dizaynda ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatish, fuqarolar pasportlariga, muassasa va tashkilotlarning muhr va shtamplari hamda ish qog‘ozlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va boshqalar) ishlarning sifatli bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Ushbu qaror “Kattaqo‘rg‘on tongi” gazetasi hamda shahar hokimligi rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (U.Sharipova) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **G. Alimova**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2022 yil 7 oktabrdagi
VI-64-154-7-106-K/22-son qaroriga
1-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahridagi takror va qonun talablariga mos kelmagan ko‘chalarni nomlash bo‘yicha TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Eksport komissiyasining xulosasi
1	Ko‘cha	Haydarchaman	Nuroniy	Bahodir Yo‘ldoshev	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2022 yil 7 oktabrdagi
VI-64-154-7-106-K/22-son qaroriga
2-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahridagi nomsiz xiyobon va maydonlarni nomlash bo‘yicha TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni MFY	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Eksport komissiyasining xulosasi
1	Xiyobon	Navbahor	Nomsiz	Mirzo Ulug‘bek	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
1	Maydon	Haydarchaman	Nomsiz	Motamsaro ona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Maydon	Oqoltin	Nomsiz	Qardoshlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2022 yil 7 oktabrdagi
VI-64-154-7-106-K/22-son qaroriga
3-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahridagi nomsiz qabristonlarni nomlash bo‘yicha TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni MFY	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Eksport komissiyasining xulosasi
1	Qabriston	Zarafshon	Nomsiz	Azizxo‘ja	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Qabriston	Ko‘hnadam	Nomsiz	Dashtbozor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Qabriston	Go‘zalkent	Nomsiz	Sarmozor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Qabriston	Oq oltin	Nomsiz	Sarmozor-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Qabriston	Oq oltin	Nomsiz	Qardoshlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Qabriston	Chinobod	Nomsiz	Dashtbozor-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Qabriston	Usmon Nosir	Nomsiz	Jumashayit	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Qabriston	Chig‘anoq qishlog‘i	Nomsiz	Yahudiylar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq